



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

To'ychiyeva Bahora Erkin qizi, Davronova Xurshida Qo'ldosh qizi

SamDU Kattaqo'rg'on filiali 1-kurs talabalari

INKLYUZIV TA'LIM MOHIYATI VA OLDIDA TURGAN ASOSIY MUAMMOLARI

Annotatsiya: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning oktabrida qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini, inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori 19-may kuni Oliy Majlis ilk bor inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritilgan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, individuallik, nogironlar, umumiy ta'lim, maxsus ta'lim

Kirish. "Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir". Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini himoya qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi. Inklyuziv ta'limning vazifasi bolalarning va holatidan qat'iy nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasini, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'lim madaniyati Salamanka deklaratsiyasiga muvofiq har bir o'quvchi xususiyatlarini isloh qilishni qo'llab quvvatlovchi va maqullovchi dalil



sifatida qaraladi. Uning maqsadlari jinsi, irqi, madaniyati, ijtimoiy millati, dini, individual imkoniyati va qobiliyati farqlar sabab ijtimoiy segregatsiya oldini olish uchun emas. Biroq, konseptsiya universal foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi. Dunyo tajribasiga ko'ra, maktablarda kiritish ko'pincha tengdoshlari bilan birga o'rta maktablarda nogironlar ta'lim sifatida qaraladi. Biroq, inklyuziv ta'lim mohiyati bilim hali jamiyatda yetarli emas. O'zbekistonda umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim joriy etish reja qilinmoqda. Keyingi o'quv yilida alohida ta'lim ehtiyoji bor bolalarning 24%, 2025-yilgacha esa 40%i odatiy maktablarga jalb qilinishi kutilmoqda. Inklyuziv ta'lim bilan bog'liq qator muammolar va xavotirlar ham mavjud. Oxirgi paytda inklyuziv ta'lim tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Ko'pchilik bu tushunchani nogirirligi bor bolalarning sog'lom bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda o'qishi, bir partada o'tirishi deb tushunadi xolos. "Aslida, faqat bu emas. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinf xonalarda bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. Kam ta'minlangan oilaning farzandi kambag'al oiladan bo'lgani uchun ta'mirlanmagan maktabga borishi kerak emas"- deydi. O'zbekiston Nogironlar uyushmasi raisi Oybek Isoqov. O'zbekistonda oilaviy sharoitdan qat'i nazar, barcha bolalar davlat umumta'lim maktablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan. Faqat xohlovchilar o'z yonidan pul to'lab xususiy maktablarda o'qishi mumkin. Lekin imkoniyati cheklangan bolalarning boshqa sog'lom bolalar bilan teng sharoitda o'qiyotgani haqida maqtanib bo'lmaydi. Bu borada muammolar ko'p. 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi prezident qarorida bu boradagi asosiy muammolar sanalgan: 1) alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar o'qitiladigan ayrim ta'lim muassasalarida ular uchun to'siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan. 2) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitishga mo'ljallangan uskuna va jihozlar bilan to'liq ta'minlanmagan. 3) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta'lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boorish yo'lga qo'yilmagani natijasida ota-onalar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan farzandklarini umumta'lim muassasalarida o'qitish mumkinligi haqida yetarli ma'lumotga ega emas. 4) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bilan bog'liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e'tibor qaratilmayapti. 5) pedagogika yo'nalishidagi OTM lar o'quv dasturlariga inklyuziv ta'lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan. 6) pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta'lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo'lajak pedagoglarning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jalb qilingan ta'lim muassasalarida amaliyot o'tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriya turdagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o'quvchi uyda ta'lim oladi. 2020-yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy



o`rta talim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o`quvchilar inklyuziv ta`lim bilan qamrab olingan. Ayni paytda ixtisoslashtirilgan maktablarda dars berayotgan o`quvchilar O`zbekistonda maktablarda hali to`laqonli inklyuziv ta`lim muhiti, kerakli sharoit, o`quv qo`llanmalar, kadrlar bo`lmasdan turib, 5 yilda inklyuziv ta`limga o`tilishi reja qilinayotganidan xavotirda. Ularning aytishicha, ixtisoslashtirilgan maktablarning o`zida nogironligi bor shaxslarning harakatlanishi uchun sharoit yaratilganiga ko`p bo`lmadi, darsliklarda muammolar bor. Ko`zi ojizlar bilan individual shug`ullanish uchun tiflo pedagoglarning yetishmasligi ham bundan tashqari maktablarda o`qituvchilar ko`pincha lider o`quvchilar bilan ishlashga o`rgangan. Ular o`qituvchini tez ilg`aydi, tushunadi va yaxshi natijalar ko`rsata oladi. Sog`lom bolalar bilan bir maktabga boradigan imkoniyati cheklangan bolaning esa lider bo`la olish ehtimoli kam, sababi ular eshitishga, ko`rishga va tushunishga boshqalarda ko`ra ko`proq kuch sarflashi kerak bo`ladi. Shu narsalarni o`qituvchilar to`g`ri qabul qila olishi va ular bilan yaxshi munosabatni yo`lga qo`ya olishi zarur. Buning uchun asa avvalo ularning o`zi tayyor bo`lishi kerak. Agar umuman imkoniyati cheklangan bolaga dars o`tmagan o`qituvchining sinfiga shunday bolalar borsa, u dastlab bola tilini tushunmasligi, uning qiyin o`zlashtirishini qabul qila olmasligi mumkin. Shuning uchun o`qituvchilarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham ishlashga o`rgatish lozim.

Xulosa va takliflar: Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o`zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim. Umumta`lim maktabiga boradigan imkoniyati cheklangan bolalarga o`qituvchi alohida yondashishi kerak bo`ladi. Kichik sinf o`quvchilari nogironligi bor bolalar haqida hech qanday tasavvurga ega bo`lmaydi. Ularning ustidan kulmaslik kerakligini, ular ham boshqalar qatori oddiy odam ekanini, faqat sal kuchsizroq ekanini tushinishmaydi. Aslida kattalar orasida ham bu narsa bor. Bularni yo`qotish uchun esa yetarlicha tushuntirish ishlarini olib boorish zarur. Rossiyada alohida ehtiyojga ega o`quvchilarni individual qo`llab-quvvatlash tizimi joriy etilgan. Bu tizimda asosiy rol yuqori malakali pedagog kadrlar, ya`ni tyutorlarda. Tyutorlar zaxiradagi pedagoglar bo`lib o`qishda imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik pedagogik hamroh sifatida qo`llab-quvvatlaydi va umumiy sinfdan doimo nogironligi bo`lgan bola bilan doimiy ishlaydi. O`tgan yili qabul qilingan O`zbekiston prezidenti qarorida ham maxsus pedagoglar va tyutorlar OTMlarda tayyorlanishi nazarda tutilgan. Manashunday chet el ta`limini kiritish orqali ham inklyuziv ta`limni rivojlantirish mumkin. Inklyuziv ta`limni joriy qilish tadbirlarini nogironligi bo`lgan o`quvchilar va ularning ota-onalari, maxsus maktab internatlaridagi pedagoglar va psixolog, logopedlar nogiron tashkilotlari vakillari bilan birgalikda ishlashi kerak. "Tabib tabib emas, boshidan o`tkazgan tabib" deganlaridek nogironligi bo`lgan bolalarning o`zlari va ularning ota-onalari o`z vazifalarini yaxshi bilishadi va xalq ta`lim vazirligi tomonidan ularning fikrlari, takliflari inobatga olinishi kerak. Nogiron bolalarga inklyuziv ta`limni qo`llash orqali ular ham sog`lom bolalar qatori bir xil ta`lim olishadi. Ular kelajakda o`z o`rinlarini topishiga aynan inklyuziv ta`lim yordam bera oladi deb o`ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risidagi qarori PQ-4312 08.05.2019.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta`lim olish ehtiyojlari bo`lgan bolalarga ta`lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori-4860 13.10.2020.
3. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta`lim texnologiyasi” o`quv va metodik qo`llanma 2014-yil.
4. Imkoniyati cheklangan bolalar va o`smirlar uchun inklyuziv ta`limni tashkil etish to`g`risida muvaqqat NIZOM.O`RXTV T,19-sentabr,2005.
5. Maktablar hamma uchun-Bolalarni qutqaring jamg`armasi-2002-yil.